

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Abduvoidova R.A.

Tarix yoʻnalishi 3-kurs talabasi

Fargʻona davlat universiteti

ruxshonaabduvoidova@gmail.com

SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1528-yilda boʻlib oʻtgan Jom jangi, unda ishtirok etgan shayboniy sultonlar, ayniqsa Keldi Muhammad sulton va Baroqxonning roli, jangning sabablari hamda oqibatlari yoritilgan. Jangning yuzaga kelishiga Movarounnahr va unga qoʻshni hududlardagi murakkab siyosiy vaziyat, shuningdek, Shayboniylar va Safaviylar oʻrtasidagi siyosiy-diniy qarama-qarshiliklar, hududiy manfaatlar toʻqnashuvi va harbiy kuch sinovga tushish istagi asosiy sabab boʻlgan. Maqolada Jom jangining tarixiy ahamiyati, uning natijalari, jang davomida roʻy bergan harbiy-strategik xatolar, gʻalaba imkoniyatini qoʻldan boy berish omillari hamda keyingi yillardagi siyosiy barqarorlik masalalari chuqur tahlil etiladi. Birinchi bosqichda gʻalaba qozongan Shayboniylarning nima sababdan oxir-oqibat maglubiya boʻlganligi va bu voqea mintaqada tarixida qanday oʻringa ega ekanligi yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Jom jangi, Keldi Muhammad sulton, Baroqxon, Shayboniylar, Shoh Tahmosp, Movarounnahr, Safaviylar, Fargʻona, Qoshgʻar, Ubaydullohxon.

KIRISH

XVI asr boshlarida Movarounnahrda siyosiy kuchlar oʻrtasida murakkab raqobat kechgan davrda Shayboniylar va Safaviylar oʻrtasidagi nizo oʻzining eng keskin bosqichiga yetdi. Bu ikki sulola nafaqat hududiy, diniy tafovutlar asosida ham keskinlashgan edi Shayboniylar sunniy islomni, Safaviylar esa shia islomini davlat mafkurasi sifatida qabul qilgan edilar. Diniy ixtilof siyosiy qarama-qarshilikni yanada chuqurlashtirib, ikki tomon oʻrtasidagi janglarni oddiy harbiy toʻqnashuvdan gʻoyaviy ziddiyat darajasiga koʻtardi [1].

1528-yilgi Jom jangi ana shu siyosiy qarama-qarshiliklarning eng muhim voqealaridan biridir. Ushbu jang nafaqat ikki sulola oʻrtasidagi kuch sinovini, balki mintaqadagi diniy va siyosiy muvozanatni belgilovchi burilish nuqtasini ifodalaydi. Jangda Shayboniylar safida Keldi Muhammad sulton, Baroqxon, Ubaydulloh sulton va boshqa yirik sarkardalar ishtirok etgan.

Ushbu maqolada Jom jangi tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi, jangning borishidagi strategik nuqtalar, sarkardalarning roli va jangdan keyingi siyosiy oqibatlar oʻrganiladi. Jom jangini oʻrganish nafaqat Shayboniylar sulolasining tarixini, balki XVI asrda butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlarni tushunish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jom jangi arafasida Movarounnahrda qo'shni hududlardagi siyosiy vaziyat ham barcha shayboniy qo'shinlarini bir yerda jam bo'lishiga imkon yaratdi. Qoshg'ar xoni Sulton Saidxon Boluristonga yurish qilib, o'z hududini sharqiy chegarasini mustahkamlashga intilishi bois Qoshg'arning g'arbida joylashgan Farg'ona vodiysiga mo'g'ullar xavf tug'dirmas edi [2]. Bu vaziyat Shayboniy sultonlarini g'arbgga – Safaviylar bilan bo'ladigan to'qnashuvga – e'tiborini to'liq qaratish imkonini berdi.

Toshkent va Farg'ona vodiysining shimoli-sharqida yashovchi qozoq va qirg'iz sultonlari Shayboniylar ittifoqchisi sifatida Jom urishida ishtirok etishi Movarounnahrda shayboniy sultonlarning bor e'tiborini safaviylarga qaratish imkonini berdi. Shuningdek, 1510-yili Marv jangida Shayboniyxon halok bo'lgach, sulola ichida doimiy bo'linishlar va taxt uchun kurashlar kechayotgan edi. Jom jangi esa bu bo'lingan kuchlarni birinchi – va so'nggi – marta birgalikda bir meydonda to'plagan voqea bo'ldi [3].

Shayboniy xonlari Xurosonnigina emas, balki butun Eronni ham qo'lga kiritish va safaviylar saltanatiga barham berish maqsadida 1528 yil iyulida, Shoh Tahmosp hamlasi sababli, Hirotidan Marvga chekingan Ubaydullohxonga yordamga o'tlanadilar va bu yurishni ular shialarga qarshi g'azot urushi deb e'lon qiladilar. Ushbu g'azot e'loni xalq o'rtasida keng jarayonlar qo'zg'atdi: shuning uchun qo'shindagi lashkarga savobtalab darveshlaru ruhoniylar, olimlaru san'at ahllari, kosib-hunarmandlaru dehqonlar ham qo'shib, sarbozu olomon – jami 105 ming kishi Amudaryodan kechib, Jom viloyatining Xargerd nohiyasiga qarashli Zurobod mavzesidagi Soriqamish degan joyda 1528 yilning 25 sentyabrida to'plandi [4].

Jom jangida Keldi Muhammad sulton bilan birgalikda Baroqxon ham ishtirok etgan, lekin uning nomi Toshkent va Farg'ona qo'shinining asosiy rahbari uning akasi Keldi Muhammad sulton bo'lganligi sababli ba'zi manbalarda tilga olinmagan [5]. Jangda Ko'chkinchixon, Jonibek sulton, Ubaydulloh sulton, Baroqxon, Abdulaziz sulton, Fo'lod sulton, Keldi Muhammad sulton, Abu Said sulton va shayboniylar davlatining boshqa ustunlari qo'mondonlik qilgan edilar. Bu shunday bir holat ediki, Shayboniylar sulolasining deyarli barcha yetakchi vakillari bir joyda jam bo'lgan edi – bu jang ularni birlashtirgan birinchi va so'nggi marta bo'ldi.

Shayboniylarning 105 ming kishilik qo'shini Shoh Tahmospning 24 ming kishilik qo'shini bilan to'qnash keldi [6]. Shiddatli janglar atigi shu kunning peshinigacha davom etib, safaviylar yengilib, Shoh Tahmosp oz sonli askarlari bilan jang maydonini tashlab qochishga majbur bo'ldi. Harbiy jihatdan bu dastlabki g'alaba mutlaq edi – dushman qo'shini to'rt barobar ko'p bo'lishiga qaramasdan, qochirishga muvaffaq bo'lindi.

Biroq o'sha payt kutilmagan voqea sodir bo'ldi: dushman mag'lubiyati ma'lum bo'lgani hamono g'alaba nashidasini barvaqtroq surishga tushgan shayboniylar qo'shini dushman ortidan quvib yetish va o'lja izlash uchun birpasda yon-atrofga tarqab ketadilar. Bu harakat asosiy strategik xato bo'ldi – jangovar intizom buzildi, qo'shinning birligi yo'qoldi.

Jang maydonida bir necha sulton va amirlar hamda shayboniylarning eng shijoatlisi Ubaydulloh sulton qoldi. Shunda maydon chetida chang-to'zon paydo

bo'lib, uning ichidan bir guruh otliqlar qolgan shayboniylar tomon kela boshladi. Shayboniy sultonlari bularni o'lja uchun tarqalib ketgan o'z odamlari deb o'yladilar. Ammo kutilmaganda chang ichidan Shoh Tahmosp va qizilbosh lashkarboshilari chiqib kelib, g'aflatda qolgan shayboniylar ustiga tashlandi. Shoh Tahmosp va uning sarkardalarining bu taktikasi harbiy tarixda yolg'on chekinish va ortga qaytib hujum qilish usulining muvaffaqiyatli namunasi sifatida baholanadi.

O'lja uchun yoyilib ketgan jangchilarga shayboniy xonlari "halokatga uchragani, Shoh Tahmospga esa katta qo'shin yordamga kelgani" haqidagi yolg'on xabar yetib bordi. Ustiga-ustak shom ham qoraygan bo'lib, tarqoq holda yurgan sarbozu savobtalablar vahimaga tushadilar, bir yerga yig'ilish o'rniga o'zlarini duch kelgan tomonga urib, zahratarak qocha boshladilar. Shu zayl 1–2 soat ichida 105 ming kishilik qo'shin taqdiri hal bo'ldi: minglab kishilar to'satdan orqadan yetib kelgan dushmanlar qilichi zarbidan va yana qanchalari shu yerdagi Saraxs daryosiga cho'kib, ko'plar esa dara-yu tog'u dashtlarda adashib halok bo'ldi.

Shayboniy xonu sultonlaridan deyarli hech biri bu jangda nobud bo'lmadi. Ular Amudaryodan sog'-salomat kechib o'tib, Buxoro, Samarqand, Toshkentga yetib keldilar va ulardan anchasi yana ko'p yil umr ko'rishdi. Bu fakt jangning xarakterini yanada to'liq ochib beradi: asosiy yo'qotishlar oddiy askarlar va savobtalab fuqarolar orasida bo'ldi, sulola vakillari esa omon qoldi.

Boburning quvonganicha bor edi: agar bu barcha sultonlar chindan ham nobud bo'lsa, unda Movarounnahr, Turkistonda qarshilik ko'rsatishga yaraydigan hech bir shayboniy xon yoki sulton qolmas, Humoyun osonlikcha mavrusiy yurtlarni qo'lga kiritishi mumkin edi [7]. Jom jangining bu xususiyati Boburiylar bilan Shayboniylar o'rtasidagi raqobat kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi.

Jom urushidan keyingi yillarda ham Farg'ona vodiysi chegaralarida barqaror siyosiy vaziyat saqlanib turdi. Mo'g'ul xoni Sulton Saidxon 1529–1530 yillarda asosan Badaxshonni o'z davlati tarkibiga qo'shib olishga urindi [8]. Uning bu harakatlari muvaffaqiyatsiz chiqqan bo'lsa-da, Farg'ona vodiysi uchun ijobiy ta'sirga ega edi. Badaxshonning ham Saidiya davlati tarkibiga kirishi vodiyning sharqiy va janubiy sarhadlari mo'g'ullarga tegishli hududlar bilan chegaradosh bo'lib qolishiga olib kelar edi.[9]

Shayboniylar davlatining shimoliy va sharqiy chegaralaridagi barqaror siyosiy vaziyat Keldi Muhammad sultonga Shayboniylarning Xuroson yurishlarida faol ishtirok etish imkonini berdi. Zayniddin Vosifiy "Badoye' ul – vaqoye'" asarida 1530 yili Keldi Muhammad sulton Toshkent va Farg'ona qo'shinlari bilan Xurosonga yurish uyushtirganligi ta'kidlangan [10]. Bu fakt shuni ko'rsatadiki, Jom jangi mag'lubiyatiga qaramay, Shayboniylar o'z harbiy faolligini so'ndirmadi.

Umuman olganda, Jom jangidan keyingi davr Shayboniylar uchun o'zini qayta tiklash va mustahkamlash davri bo'ldi. Safaviylar bilan to'qnashuvlar davom etsada, Movarounnahr va Farg'ona vodiysida ichki siyosiy barqarorlik nisbatan saqlanib qoldi. Bu barqarorlik ko'p jihatdan Keldi Muhammad sulton va Baroqxon kabi mahalliy sarkardalarning o'z hududlarini boshqarishdagi mahoratiga bog'liq edi.

Jom jangi Shayboniylar tarixida og'ir, biroq tajribaga boy bir davrni boshlab berdi. Dastlab g'alaba ularning tomonida bo'lgan bo'lsa-da, tartibsizlik va noto'g'ri harakatlar tufayli katta yo'qotishlarga duch kelindi. Bu jangning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u Shayboniy sultonlarini birinchi va so'nggi marta bir joyga to'plagan tarixiy voqea bo'ldi.

Jangdagi asosiy xato – harbiy intizomning buzilishi, g'alabani to'liq mustahkamlashdan oldin o'lja izlab tarqalib ketish – yirik harbiy mag'lubiyatga olib keldi. Shunga qaramay, Shayboniy sultonlarining aksariyati tirik qolib, o'z hukmronligini saqlab qoldi. Bu hol ularning keyingi siyosiy faoliyatini davom ettirish imkonini berdi.

Jangdan keyingi yillarda Farg'ona vodiysi va Movarounnahrda siyosiy barqarorlik nisbatan tiklanib, hududlararo munosabatlar yanada mustahkamlandi. Keldi Muhammad sulton va Baroqxon bu jarayonda faol rol o'ynab, o'z hududlarini barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shdi.

Ushbu jang mintqa tarixida siyosiy hushyorlik va harbiy intizomning naqadar muhimligini ko'rsatib bergan voqea sifatida esda qolgan. Jom jangi saboqlari – g'alaba qozonib, uni mustahkamlay olmaslik; katta qo'shinni boshqarish murakkabligi; diniy g'ayrat va harbiy strategiyani muvozanatda tutishning zarurligi – o'rta asrlar harbiy tarixi uchun qimmatli o'rganish ob'yekti bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azamat Ziyo. *O'zbek davlatchiligi tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.120,125
2. Amir Haydar. *Tarixi Rashidiy*. – Toshkent, 2020. – B.536
3. Muhammadyor ibn Arab Qatag'on. *Musaxxir al-bilod*. – Toshkent, 2009. – B. 94
4. Nishonov A.A. *Shayboniylar davrida Farg'ona vodiysi*. – Toshkent, 2015. – B.94
5. Nishonov A.A. *Shayboniylar davrida Farg'ona vodiysi*. – Toshkent, 2015. – B.86
6. Xondamir. *Habib us-siyar*. – Toshkent, 2013. – B.210,212
7. Bobur Z.M. *Boburnoma*. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B.230
8. Amir Haydar. *Tarixi Rashidiy*. – Toshkent, 2020. – B.537,541
9. Hofiz Tanish Buxoriy. *Abdullanoma*. – Toshkent, 1999. –B.26
10. Vosifiy Zayniddin. *Badoe'ul-vaqoe'*. – Toshkent, 1979. – B.200,202

Абдувойдова Р.А.

Студентка 3 курса по направлению история
Ферганский государственный университет
ruxshonaabduvoidova@gmail.com

ПЕРВАЯ И ПОСЛЕДНЯЯ БИТВА ПРАВИТЕЛЕЙ ШАЙБАНОВ – БИТВА ПРИ ДЖОМЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается битва при Джаме 1528 года, участие в ней шейбанидских султанов, особенно Кельди Мухаммад султана и Барох-хана, а также причины и последствия сражения. Анализируется политическая ситуация в Мавераннахре и соседних землях, противостояние между шейбанидами и Сефевидами, религиозные и военные аспекты конфликта. Особое внимание уделено историческому значению Джамской битвы, военно-стратегическим ошибкам, совершённым в ходе боя, и её влиянию на политическую стабильность в регионе.

Ключевые слова: Битва при Джаме, Кельди Мухаммад султан, Барох-хан, Шейбаниды, Шах Тахмасп, Мавераннахр, Сефевиды, Фергана, Кашгар, Убайдуллах хан.

Abduvoidova R.A.

The 3rd year student of History
Fergana State University
ruxshonaabduvoidova@gmail.com

THE FIRST AND LAST UNION BATTLE OF THE SHAYBANIY RULERS – THE BATTLE OF JOM

ABSTRACT

This article examines the Battle of Jam of 1528, focusing on the participation of the Shaybanid sultans - particularly Keldi Muhammad Sultan and Baroq Khan - as well as the causes and consequences of the conflict. It analyzes the political situation in Mawarannahr and neighboring regions, the confrontation between the Shaybanids and the Safavids, and the religious and military dimensions of the war. Special attention is given to the historical importance of the Battle of Jam, the strategic military errors committed during the battle, the factors that led to the loss of an apparent victory, and its impact on the region's political stability in subsequent years.

Key words: Battle of Jam, Keldi Muhammad Sultan, Baroq Khan, Shaybanids, Shah Tahmasp, Mawarannahr, Safavids, Fergana, Kashgar, Ubaydullah Khan.